

Bo'lim boshlig'i:

## Atametov Raimjon Kayumjonovich

**Telefon:** (0 371) 238-64-56

**E-mail:** -

### **Mehnat muhofazasi va fuqoralarni himoya qilish bo'limi haqida**

Mehnat muhofazasi va fuqoralarni himoya qilish bo'limi (MM va FHQ) bo'limi universitetda sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlari yaratishni, MM va FHQ bo'yicha qonunlarga rioya qilgan holda ishlab chiqarish sanitariyasi, yong'in xavfsizligi atrof muxit tozaligiga rioya qilinishini nazorat qiladi hamda bu yo'nalishda tadbirlar olib boriladi. O'quv laboratoriyalarining sanitariya-gigiyena holati, ulardagi qurilmalarning himoya vositalarining sozligini tekshirib boradi boradi. Xavfsiz mehnat va dam olish uchun yaratilishi bo'yicha chora -tadbirlar ishlab chiqadi.

Universitetda MM va FHQ bo'yicha ishga joylashishda va davrida qayta o'qitishni amalga oshiradi.

MM va FHQ bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar va maxsus kiyim-kechaklar va shaxsiy himoya vositalarini sotib olish uchun sarf-harajatlar smetasini vaqtida o'tkazishini nazorat qiladi. Xavfsiz mehnat va standartlarini bajarilishi bo'yicha Davlat nazorat tashkilotlarini bajarilishini ta'minlaydi.

Korxonada yuz began baxtsiz hodisalarning sababini o'rganishda ishtirok etadi. Kasb kasaliklari va ularni oldini olish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadi va oldini olishni ta'minlaydi. Turli ko'rgazmali vositalar yordamida suhbatlar o'tkazish yo'li bilan MM va FHQ bo'yicha tadbirlar o'tkazadi.

### **Yong'in xavfsizligi bo'yicha reja tuzadi va quyidagi ishlarni amalga oshiradi:**

- Bino tomlariga yong'inga qarshi ishlov berish;
- Yong'in haqida xabar beruvchi moslamalarni o'rnatish;
- O't-o'chirish qurollarini xarid qilish;
- Yong'in sodir bo'lgan holda aholi va mulkni olib chiqish rejasi;
- Eskirgan o't o'chirish moslamalarini qayta to'ldirish;
- Universitet hududidagi chiqindilarini vaqtida olib chiqish;
- Ruxsat berilmagan elektr qurilmalaridan foydalanmaslik;
- Elektr simlarini, o'chirib-yoqqichlar, tarqatish korobkalarini tekshirish;
- Vaqtinchalik elektr o'tkazgichlarni doimiysiga almashtirish;
- Ixtiyoriy o't o'chirish guruhini tashkil etish;
- Universitet bino va qo'shimcha xonalarida yong'in xavfsizligi bo'yicha javobgar shaxslarni tayinlash;
- O'quv laboratoriyalarida talabalar uchun texnika xavfsizligi bo'yicha jurnallar olib borish;
- Talabalar qurilish guruhlari a'zolari uchun AH va MM bo'yicha suhbatlar o'tkazish;
- Kuchli yer qimirlashi yoki yong'in sodir bo'lgan hollarda insonlarni binodan reja asosida olib chiqishni ta'minlash.

### **MM va FHQ bo'limi xodimlari:**

1-toifali MM va FHQ muxandisi – F.X.Xasanov

FM va FV muxandisi – K.A.Shabatayev

Yong'in xavfsizligi instruktori – O.H.Samatov